

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI  
TURIZM FAOLIYATINI LITSENZIYALASH TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH  
HAQIDA**

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2003 y., 21-son, 212-modda; 2004 y., 30-son, 344-  
modda; 2006 y., 20-21-son, 181-modda; 37-38-son, 378-modda)*

«Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

- Turizm faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;
- Vazirlar Mahkamasining turizm faoliyatini litsenziyalash komissiyasi tarkibi 2-ilovaga\* muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlar Mahkamasining turizm faoliyatini litsenziyalash komissiyasi:

ikki hafta muddatda Komissiya to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

ikki oy muddatda mazkur qaror kuchga kirgunga qadar berilgan litsenziyalarni xatlovdan o‘tkazsin, litsenziya bitimlarining ushbu qaror bilan tasdiqlangan Turizm faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiqlashtirilishini ta’minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida» 1998 yil 8 avgustdagi 346-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1998 y., 8-son, 29-modda) 8-bandining birinchi xatboshidagi «turizm sohasida litsenziya berish bo‘yicha» so‘zlari «turizm faoliyatini litsenziyalash» so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Azizxo‘jayev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O‘.SULTONOV**

Toshkent sh.,  
2003 yil 11 noyabr,  
497-son

Vazirlar Mahkamasining  
2003 yil 11 noyabrdagi

## **Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risida NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom turizm faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilaydi.
2. Turizm faoliyatiga sayohatlar, ekskursiyalar va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etishga doir faoliyat (turistik agentliklar, turoperatorlar, sayyohlik tashkilotlari, mehmonxonalar, kempinglar va boshqa yashash joylari, turizmga ixtisoslashgan boshqa tashkilotlar) tegishli bo'ladi.
3. Litsenziyalar berish va ularni bekor qilish, ularning amal qilishini to'xtatish, to'xtatib turish va tiklash to'g'risidagi qarorlar Vazirlar Mahkamasining turizm faoliyatini litsenziyalash komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tomonidan qabul qilinadi  
«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Komissiyaning ishchi organi (keyingi o'rinlarda ishchi organ deb ataladi) funksiyasini bajaradi.
4. Faqat yuridik shaxslar litsenziya talabgorlari bo'lishi mumkin.
5. Turizm faoliyatini amalga oshirish huquqiga namunaviy (oddiy) litsenziya beriladi.
6. Turizm faoliyatini amalga oshirishga litsenziya 5 yil muddatga beriladi. Litsenziya besh yildan kam muddatga litsenziya talabgorining arizasiga ko'ra berilishi mumkin.

### **II. Litsenziya talablari va shartlari**

7. Quyidagilar turizm faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

- turizm to'g'risidagi qonun hujjatlariga, turizm sohasidagi xalqaro standartlariga va O'zbekiston Respublikasi standartlariga majburiy tarzda rioya qilish;
- yuridik shaxs shtatida turizm sohasida maxsus ma'lumotga yoki turizm sohasida kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lgan kamida bir nafar xodim bo'lishi;
- yuridik shaxsning bevosita sayohatlar, ekskursiyalarni tashkil etish va ular bilan bog'liq xizmatlar bilan xizmatlar ko'rsatuvchi xodimlarining kamida 3 yilda bir marta malaka oshirishlari;
- tegishli tarzda jihozlangan o'z mulki bo'lgan yoki ijaraga olingan xizmat binolari mavjud bo'lishi;
- eng kam oylik ish haqining kamida 400 baravari miqdorida shakllantirilgan ustav fondiga ega bo'lishi;
- ko'rsatiladigan turizm xizmatlariga muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lishi;
- mijoz bilan faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq shartnoma (kontrakt) tuzilgandan keyin turizm xizmati ko'rsatish;
- chet elga chiqish, kelish va u yerda bo'lishning o'ziga xos xususiyatlari, turistik sayohat vaqtida o'zini tutish xususiyatlari hamda har biri aniq mamlakatda bo'lishning boshqa qoidalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni har bir turistga belgilangan tartibda yetkazish;
- mijozga litsenziat ish rejimi, uning yuridik manzili, litsenziya, majburiy tarzda sertifikatlanadigan xizmatlarga sertifikatning mavjudligi, turizm faoliyatining aniq yo'nalishlari uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi to'g'risida to'liq va aniq ma'lumot berish;
- turistlar xavfsizligini ta'minlash, jarohat olganda, kasallanib qolganda va boshqa hollarda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining mavjud bo'lishi.

### **III. Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar**

8. Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi hamda faoliyatning ko'rsatib o'tilgan turi amalga oshiriladigan muddat ko'rsatilgan holdagi litsenziya berish to'g'risida ariza;

- yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;
- litsenziya talabgori tomonidan binodan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek binoni moddiy-texnik jihatdan jihozlashning litsenziyalanadigan faoliyat turi talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi ishchi organ vakillari tomonidan tekshirish dalolatnomasi;
- shakllantirilgan ustav fondi miqdori to'g'risida bank ma'lumotnomasi;
- turizm sohasida maxsus ma'lumotga yoki ish stajiga ega bo'lgan mutaxassislar mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (diplom yoki mehnat daftarchasi nusxasi, ishga qabul qilish to'g'risida buyruq);
- familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, pasport ma'lumotlari, uy manzili, ma'lumoti, telefon raqamlari ko'rsatilgan holda rahbar to'g'risidagi ma'lumotlar.

9. Litsenziya talabgoridan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlarning taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

10. Hujjatlar litsenziya talabgori tomonidan ishchi organga bevosita yoxud olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan pochta aloqa vositasi orqali yetkazib beriladi.

Hujjatlar ishchi organ mas'ul xodimi tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxatning nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda ariza beruvchiga yuboriladi (topshiriladi).

Noto'g'ri yoki buzilgan ma'lumotlar taqdim etilganligi uchun litsenziya talabgori qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

#### **IV. Arizani ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish**

11. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya talabgoridan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi, yig'im ishchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im qaytarilmaydi.

12. Turizm faoliyatini litsenziyalash ushbu Nizomga ilova qilinayotgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror ariza va barcha zarur hujjatlar olingan kundan boshlab o'ttiz kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.

Ishchi organ o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda hujjatlarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha ekspert xulosasi tayyorlaydi va litsenziya talabgoriga litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi taklifni tegishli qaror protokoli loyihasi bilan tasdiqlash uchun Komissiyaga kiritadi.

Komissiya ishchi organ taklifi olingandan keyin o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda uni ko'rib chiqadi hamda qabul qilingan qaror to'g'risidagi protokolni tasdiqlaydi. Komissiya tomonidan qabul qilingan qaror protokoli Komissiya raisi (uning o'rinbosari) tomonidan imzolanadi.

13. Ishchi organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin uch kun muddatda litsenziya talabgorini qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qiladi.

Litsenziya berishga qaror qilinganligi to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga bank hisob raqami rekvizitlari, davlat boji to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi). Litsenziya berish to'g'risida qabul qilingan qaror to'g'risidagi bildirishnoma bilan bir vaqtda litsenziya talabgoriga imzolash uchun litsenziya bitimi yuboriladi.

14. Litsenziyalovchi organ va litsenziyatning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi litsenziya bitimi ishchi organ va litsenziyat o'rtasida tuziladi, unda quyidagilar bo'lishi kerak:

- bitimni imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, egallab turgan lavozimi;
- tomonlarning rekvizitlari;

- amalga oshirilishiga litsenziya berilayotgan faoliyat turi;
- litsenziatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari;
- litsenziyaning amal qilish muddati;
- litsenziya bitimi talablari va shartlari buzilganligi uchun tomonlarning javobgarligi;
- litsenziat tomonidan litsenziya bitimi talablari va shartlari bajarilishini ishchi organ tomonidan nazorat qilish tartibi.

Litsenziya bitimi ikki nusxada — litsenziat va ishchi organ uchun bir nusxadan tuziladi.

15. Turizm faoliyatiga litsenziyalar belgilangan shakldagi maxsus blankalarda rasmiylashtiriladi. Litsenziyalar blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'lishi kerak. Litsenziyalar blankalari namunalari ishchi organ tomonidan ishlab chiqiladi, Komissiya tomonidan tasdiqlanadi hamda ishchi organ buyurtmanomasiga ko'ra «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan bosmaxona usulida tayyorlanadi. Litsenziyalar blankalari hisobga olinishi, saqlanishi va maqsadli foydalanilishi uchun ishchi organ rahbari shaxsan javob beradi.

Litsenziyalar ishchi organ tomonidan rasmiylashtiriladi va Komissiya raisi (uning o'rinbosari) tomonidan imzolanadi.

Litsenziyada Xalqaro turizm tashkilotining Turizm faoliyat turlari xalqaro klassifikatsiyasi standartiga muvofiq ruxsat berilgan faoliyat turi ko'rsatiladi.

16. Litsenziya litsenziya talabgori tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan va litsenziya bitimi imzolangandan keyin uch kun muddatda beriladi.

17. Agar litsenziat litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma yuborilgan (topshirilgan) vaqtdan boshlab uch oy mobaynida ishchi organga litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmasa yoxud litsenziya bitimini imzolamasa, Komissiya litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

18. Litsenziya berish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha rad etilishi mumkin.

Litsenziya talabgori litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror, shuningdek ishchi organ mansabdor shaxsining xatti-harakati (harakatsizligi) yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

19. Litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatlarni qayta ko'rib chiqishga taqdim etishi uchun yetarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (topshiriladi).

20. Litsenziya talabgori tomonidan litsenziya berish rad etilishiga asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni qayta ko'rib chiqish litsenziya talabgorining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda olingan kundan boshlab o'n kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bunda ishchi organ hujjatlar qayta taqdim etilgandan keyin besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda ular bo'yicha ekspert xulosasi tayyorlaydi, litsenziya talabgoriga litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi taklifni tegishli qaror protokoli loyihasi bilan tasdiqlash uchun Komissiyaga kiritadi.

Komissiya ishchi organ taklifi olingandan keyin besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda uni ko'rib chiqadi va qabul qilingan qaror to'g'risidagi potokolni tasdiqlaydi. Komissiya tomonidan qabul qilingan qaror protokoli Komissiya raisi (uning o'rinbosari) tomonidan imzolanadi.

Litsenziya talabgorlarining arizalari takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi.

## **V. Litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish, ularning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish**

21. Litsenziat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir hafta muddatda litsenziyalovchi organga ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Hujjatlar litsenziat tomonidan ishchi organga bevosita yoxud olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan pochta aloqa vositasi orqali yetkazib beriladi.

22. Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish ishchi organ tomonidan tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza olingan kundan boshlab besh kun mobaynida amalga oshiriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi ishchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

23. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziatning arizasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ishchi organga litsenziyaning amal qilish muddati o'tgunga qadar ikki oydan kechikmay berilishi kerak.

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish litsenziya berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

24. Yo'qolgan yoki amal qilish muddati o'tmagan yaroqsiz holga kelgan litsenziya o'rniga litsenziatning arizasiga ko'ra uning dublikati berilishi mumkin.

Litsenziya dublikati berishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi ishchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

## **VI. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish**

25. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

26. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda ishchi organ o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshirish;
- litsenziya talablari va shartlari litsenziat tomonidan buzilganligidan dalolat beruvchi hollar mavjud bo'lgan taqdirda litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonunda belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshirish;
- litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida paydo bo'ladigan masalalar yuzasidan litsenziatdan zarur axborotni so'rash va olish;
- tekshirishlar natijalari asosida, litsenziya talablari va shartlarining aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;
- litsenziatga aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday buzilishlarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;
- litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yish, to'xtatish yoki uni bekor qilish to'g'risida Komissiyaga ko'rib chiqish uchun masala kiritish.

27. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda ishchi organ xodimlari tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ularning bittasi litsenziatga beriladi, ikkinchi nusxasi ishchi organda qoladi.

## **VII. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish, litsenziyani bekor qilish**

28. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ishchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ishchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori yuzasidan sudga shikoyat qilish mumkin. Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishi asossiz ekanligi sud tomonidan e'tirof etilgan taqdirda, ishchi organ litsenziat oldida litsenziat ko'rgan zarar miqdorida javob beradi.

29. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Komissiya qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Komissiyaning litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qarori yuzasidan sudga shikoyat qilish mumkin. Litsenziyaning amal qilishi to'xtatilishi asossiz ekanligi sud tomonidan e'tirof etilgan taqdirda, Komissiya litsenziat oldida litsenziat ko'rgan zarar miqdorida javob beradi.

30. Litsenziyani bekor qilish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Komissiya qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Komissiyaning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori yuzasidan sudga shikoyat qilish mumkin. Litsenziyaning bekor qilinishi asossiz ekanligi sud tomonidan e'tirof etilgan taqdirda, Komissiya litsenziat oldida litsenziat ko'rgan zarar miqdorida javob beradi.

### **VIII. Litsenziyalar reestri**

31. Ishchi organ turizm faoliyati litsenziyalari reestrini yuritadi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- yuridik shaxsning nomi, uning tashkiliy-huquqiy shakli, pochta manzili, telefon va faks raqamlari;
- rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- litsenziyaning berilgan sanasi va tartib raqami;
- litsenziyaning amal qilish muddati;
- litsenziyani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, to'xtatib turish va tiklashning asoslari va sanasi;
- litsenziyaning amal qilishini to'xtatish asoslari va sanasi;
- litsenziyani bekor qilishning asoslari va sanasi;
- dublikat berish asoslari va sanasi.

32. Turizm faoliyati litsenziyalar reestridagi ma'lumotlar ular bilan yuridik va jismoniy shaxslarning tanishishi uchun ochiq hisoblanadi, ular to'lov asosida ishchi organdan aniq litsenziatlar to'g'risida litsenziyalar reestridan ko'chirma sifatida ma'lumot olishga haqlidir.

Litsenziyalar reestridan ma'lumot berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining yarmi miqdorida to'lov undiriladi, to'lov ishchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

33. Litsenziyalar reestridan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga ma'lumotlar tekin beriladi.

### **IX. Litsenziya berilganligi uchun davlat boji**

34. Turizm faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravari miqdorida davlat boji undiriladi.

35. Davlat boji summasi respublika byudjetiga o'tkaziladi.

Turizm faoliyatini litsenziyalash  
to'g'risidagi nizomga

ILOVA

**Turizm faoliyatini litsenziyalash  
SXEMASI**

